

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK - QURILISH INSTITUTI

Iqtisod kafedrasи

**5111000-Kasb ta'limi “5230100-Iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishida tahlil
olayotgan talabalar uchun**

**Moliyaviy va boshqaruv tahlili
fanidan**

**Mustaqil ishlarini tashkil etish,
nazorat qilish bo'yicha**

USLUBIY KO'RSATMA



NAMANGAN - 2018

Uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2009 yil 14 avgustdag'i 286-sonli «Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida»gi buyrug'i bilan tasdiqlangan «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnomasi, 2010 yil 26 avgustdag'i 333-sonli buyrug'i bilan amalga kiritilgan "Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" hamda "Moliyaviy va boshqaruv tahlili" fanining o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur uslubiy ko'rsatmada talabalar mustaqil ishlarining asosiy shakllari va ularning mazmuni, mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish, ularni nazorat qilish hamda baholash tartibi bayon etilgan.

Tuzuvchilar:

M.YUnusov - NamMQI «Iqtisodiyot» kafedrasining dotsenti, i.f.n.

U.Xolmirzayev - NamMQI, «Iqtisodiyot» kafedrasini o'qituvchisi.

Taqrizchi:

I.Sirojiddinov - NamMQI «Iqtisodiyot» kafedrasining dotsenti, i.f.n.

Uslubiy ko'rsatma

«Iqtisodiyot» kafedrasining _____ -
sonli yig'ilishida ma'qullandi _____

Kafedra mudiri: _____
prof. B.Maxmudov
«____»_____ 2018 yil

Namangan muhandislik – qurilish instituti ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan «____» 2018 y.dagi ____ sonli majlis bayoni. (____ - son bilan ro'yhatga olingan).

KIRISH

Oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan 5111000-Kasb ta’limi “5230100-Iqtisodiyot” yo‘nalishidagi mutaxassislarning o‘quv rejasida «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fanini o‘rganish ko‘zda tutilgan. Mazkur fanlarning oldiga qo‘yilgan maqsadi ko‘p mulkchilikka asoslangan korxona va firmalarda iqtisodiy tahlilini o‘tkazish usullari bilan bo‘lg‘usvi bakalavrлarni tanishtirish va shu yo‘l bilan ularda mutaxassislikni shakllantirishdan iborat. O‘quv jarayonida talabalar iqtisodiy tahlilning mohiyati, tashkil qilinishi, iqtisodiy tahlilni o‘tkazish uslubi bilan yaqindan tanishadilar. Talabalar ushbu fan bo‘yicha mustaqil ishi tayyorlaydilar. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimiga asosan mustaqil ishiga 10 ballgacha beriladi. Ushbu ball talabaning o‘rganayotgan fani reytingiga qo‘shiladi.

I. Mustaqil ishining ahamiyati va mutaxassislik shakllanishidagi vazifalari

«Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fanini bo‘yicha mustaqil ishini yozish jarayonida talaba ma’lum mavzu bo‘yicha o‘zining ilmiy – nazariy qarashlarini boyitadi, ushbu jarayonni takomillashtirish bo‘yicha xulosalar qiladi va takliflar beradi.

Talaba tomonidan mustaqil ishining yozilishi quydagи vazifalarga qaratilgan:

- talabaning ilmiy – nazariy qobiliyatini ma’lum yo‘nalishiga asoslab mustahkamlash;
- talabaning qabul qilingan qarorlar, nizomlar va boshqa me’yoriy hujjatlar bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish;
- belgilangan yo‘nalish yoki mavzu bo‘yicha talabaning maxsus adabiyotlar, ilmiy maqolalar ustida ishlashni rivojlantirish;
- mustaqil ishi mavzusi bo‘yicha kelgusida mutaxassis sifatida o‘zining kasbi korlik huquqi, burchi va ma’suliyatini oshirish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish natijasida undagi ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash hamda uning iqtisodiy-moliyaviy holatini barqarorlashtirish bo‘yicha takliflar berish;
- talabalarda mustaqil ishi yakuni bo‘yicha nazariy va amaliy jihatdan asoslangan xulosalar qilishga, aniq takliflar berishga o‘rgatishdan iborat;

II. Mustaqil ishi mavzusini tanlash tartibi

Talabaning mustaqil ishining natijasi bevosa mavzuning to‘g‘ri tanlanganligiga bog‘liq. Talaba to‘g‘ri kelgan mavzuni tanlamasligi kerak. U oldin kafedra tomonidan tavsiya qilingan mustaqil ishlarining mavzulari bilan yaqindan tanishgan bo‘lishi kerak. Kafedrada ushbu fan bo‘yicha ma’lum namunaviy mavzular ishlab chiqiladi va talabalarga ma’lum qilinadi. Mavzular moliyaviy va boshqaruv tahlilining nazariy, uslubiy va tashkiliy tomonlarini o‘z ishiga oladi. Mustaqil ishlari namunaviy mavzular asosida tanlanadi.

III. Mustaqil ishi rejasini tuzish

Mustaqil ishining muvaffaqiyatli yakunlanishi ushbu ishining tayyorlanish rejasiga bevosita bog‘liqdir. Ishning rejası talaba tomonidan o‘qituvchi maslahatiga asoslanib tuziladi. Ishning rejasida uning maqsadi, vazifalari aniqlangan bo‘lishi kerak. Buning uchun talaba ushbu mavzuning nazariy va amaliy tomonlarini yaxshi bilishi kerak. Bu maqsadlar uchun me’yoriy hujjatlar, maxsus adabiyotlar, fanlar bo‘yicha ma’ruza matnlari o‘rganiladi. ayrim masalalar bo‘yicha amaliyat ma’lumotlariga murojaat qilinadi.

Mustaqil ishi rejası quydagı ketma – ketlikda tuziladi:

- ishning kirish qismi;
- mustaqil ishida ko‘riladigan asosiy savollar (3-5 ta savol);
- ishning xulosa va takliflar qismi.

V. Mustaqil ishlarini yozishda me’yoriy hujjatlar, maxsus adabiyotlar va amaliy ma’lumotlardan foydalanish

Talaba mustaqil ishini yozishda me’yoriy hujjatlar, maxsus adabiyotlardan keng foydalaniladi. SHuning uchun ham u qabul qilingan Qonunlar, Nizomlar, yo‘riqnomalarni chuqur bilishi kerak. Maxsus adabiyotlarni mukammal bilishi shart. Aks holda mustaqil ishi mavzusi bo‘yicha aniq xulosalar qilishi va takliflar berish qiyin bo‘ladi.

Talaba mustaqil ishi mavzusiga aloqador bo‘lgan kafedradagi, kutubxonadagi mavjud me’yoriy xujjatlar, maxsus adabiyotlar bilan yaqindan ro‘yxati tuziladi. mavzu bo‘yicha ayrim ma’lumotlar institutida chop etilgan ilmiy – amaliy anjuman to‘plamlarida bo‘lishi ham mumkin. Talaba barcha manbalarni ma’lum ketma – ketlikda umumlashtirishda, keyinchalik ijobiy o‘rganadi.

Mustaqil ishi oxirida esa foydalanilgan manbalar ro‘yxati bo‘yicha keltiriladi.

V. Mustaqil ishini yozish tartibi va rasmiylashtirilishi.

Mustaqil ishi mavzusi, qo‘yilgan savollari ham nazariy, ham amaliy jixatdan o‘rganilgandan keyin talaba tomonidan mustaqil yoziladi. Ishni yozishda ma’lum talablar qo‘yiladi. Iqtisodiy tahlil bo‘yicha mustaqil ishi yuqori ilmiy – nazariy va amaliy mazmunida yozilishi kerak.

Mustaqil ishi uning kirish qismini yozishdan boshlanadi. Unda mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari va ilmiy – amaliy amaliyoti yoritiladi. Keyinchalik qo‘yilgan savollar yorititladi. Xar bir savol yoritilganda uning ilmiy nazariy tomonlari, amaliyotdagi holati, mavjud kamchiliklariga e’tibor beriladi va ularni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar kiritiladi. Talaba har bir savolni yoritish jarayonida mavjud kamchiliklar berilayotgan takliflarni alohida hisobga olib borsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu takliflarni keyinchalik ishni “Xulosa va takliflar” qismida foydalaniladi.

Mustaqil ishining xajmi 10 – 15 betlar atrofida bo‘lishi mumkin (ilovalardan tashqari). YOzib tugatilgan ish ma’lum tartibda rasmiylashtiriladi. Ish muqova varag‘i, mazmuni ifodalangan qismi, xulosa va takliflari, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat bo‘ladi.

VI. Mustaqil ishining tekshirilishi va himoyasi

Talaba tomonidan yakunlangan mustaqil ishi o‘qituvchiga topshiriladi. Talabaning mustaqil ishi talablarga to‘liq javob bergan taqdirdagina himoya qo‘yiladi. Mustaqil ishining himoyasi o‘qituvchi tomonidan o‘tkaziladi.

«Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fanidan mustaqil ishining namunaviy mavzulari

1. Maxsulot ishlab chiqarish va sotish rejasininig bajarilishini taxlili.
2. Maxsulotni sifatlilik darajasini taxlili.
3. Sanoat korxonalarini mexnat resurslari bilan ta’milanishini tahlili.
4. Ish vaqtin fondidan foydalanishning tahlili.
5. Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarini tahlili.
6. Maxsulot xajmini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili
7. Maxsulot xajmini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi mehnat omillarini tahlili.
8. Maxsulot xajmini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi mehnat vositalari omillarini tahlili.
9. Maxsulot xajmini o‘zgarishiga ta’sir etuvchi mehnat buyumlari omillarini tahlili
10. Materiallardan foydalanishning samaradorlik darajasini tahlili.
11. Asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik darajasini tahlili.
12. Maxsulot tannarxini tahlili
13. Mehnatga xaq to‘lash fondidan foydalanishning tahlili.
14. Korxonani moliyaviy holatini tahlil qilishda tahlilda qo‘llaniladigan hisobot shakllari.
15. Korxonani moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning tahlili
16. Mahsulot sotishdan olingan yalpi moliyaviy natijalarni tahlili
17. Asosiy ishlab chiqarish faoliyati bo‘yicha moliyaviy natijalarni tahlili.
18. Umumxo‘jalik faoliyati bo‘yicha moliyaviy natijalarning tahlili.
19. Sof foydani tahlili.
20. Quvvatlilik faoliyati koeffitsenti ko‘rstakichlarini tahlili.
21. Ishchanlik faoliyati koeffitsenti ko‘rsatkichlarini tahlili.
22. Rentabellik ko‘rsatkichlarini tahlili.
23. Bozorga oid ishchanlik faoliyati koeffitsenti ko‘rsatkichlarini tahlili.
24. Korxonani moliyaviy barqarorligini tahlili.
25. Korxonani o‘zini mablag‘lari bilan ta’milanishini tahlili.
26. Balansni aktivini tahlili.
27. Balansni passivini tahlili.
28. Korxonani to‘lov qobiliyatini tahlili.

- 29.Debitor va kreditor qarzlar holatini tahlili
30. Aylanma mablag‘larini aylanishini tahlili.
31. Pul oqimlari harakatini tahlili.
- 32.Nomoddiy aktivlarni tahlili
- 33.Korxonani iqtisodiy salohiyatini tahlili
- 34.Funksional qiymat tahlili
- 35.Korxonani moliyaviy holatini tahlili
- 36.Tovar-moddiy zahiralarni tahlili
- 37.Korxonani moliyaviy salohiyatini tahlili
- 38.Korxonani moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili
- 39.Korxona mulki tarkibini tahlili
- 40.Tovar-moddiy zahiralarni tahlili.

